
№5 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№5 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD
Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

USTOZDAN SHOGIRDGA: XALQ OG‘ZAKI IJODINING UZLUKSIZ AN’ANALARI

Karimova Muqaddas Abdisamatovna
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
karimovamukaddas13@gmail.com
0009-0003-7450-8683

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining shakllanish bosqichlari, tomosha san’atining dastlabki ko‘rinishlari hamda ustoz-shogird an’analarining tarixiy taraqqiyot yo‘li yoritilgan. Folklor janrlarining rivojlanishi jarayonida kasbiy ijrochilikning shakllanishi, xalq tomoshalarini tashkil etishda korfarmonlik faoliyatining o‘rni hamda xalq og‘zaki ijodi an’analarining zamonaviy madaniy taraqqiyotga ta’siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, folklor, ustoz-shogird an’anasi, tomosha san’ati, pantomima, korfarmon, rejissura, an’ana, kasbiy ijrochilik.

ОТ УЧИТЕЛЯ К УЧЕНИКУ: НЕПРЕРЫВНОСТЬ ТРАДИЦИЙ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА

Аннотация. В статье рассматриваются этапы формирования устного народного творчества, ранние формы зрелищного искусства и историческое развитие традиции «устоз–шогирд» («учитель–ученик»). На основе научных источников анализируются становление профессионального исполнительского искусства в процессе развития фольклорных жанров, роль деятельности корфармонов в организации народных представлений, а также влияние традиций устного народного творчества на современное культурное развитие.

Ключевые слова: устное народное творчество, фольклор, традиция «учитель–ученик», зрелищное искусство, пантомима, корфармон, режиссура, традиция, профессиональное исполнительское искусство.

FROM MASTER TO DISCIPLE: THE CONTINUITY OF ORAL FOLK TRADITIONS

Abstract. This article examines the stages in the formation of oral folk art, the early forms of performing arts, and the historical development of the master–apprentice tradition. Drawing on scholarly sources, the study analyzes the emergence of professional performance practices in the development of folklore genres, the role of korfarmons in organizing traditional folk performances, and the influence of oral folk traditions on contemporary cultural development.

Keywords: oral folk art, folklore, master–apprentice tradition, performing arts, pantomime, korfarmon, directing, tradition, professional performance.

KIRISH

Xalqning badiiy ijodi va ustoz-shogird an’analari milliy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida yuksak ijtimoiy va ma’naviy ahamiyat kasb etadi. Zero, xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali xalqning tarixi, turmush tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari, dunyoqarashi hamda ijtimoiy munosabatlari haqida muhim ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Shu bilan birga, folklor asarlarida xalqning estetik qarashlari, badiiy tafakkuri va ma’naviy olami o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Folklor asarlari yosh avlodning estetik didini shakllantirish, ona tilining boy imkoniyatlarini anglash, badiiy so‘zning ta’sir kuchini his etish hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, ustoz-shogird an’anasi orqali xalq san’atining ijro usullari, badiiy tajribasi va ijodiy mahorati avloddan avlodga uzluksiz ravishda yetkazib kelingan. Natijada milliy folklor nafaqat og‘zaki ijod namunasi, balki xalqning tarixiy xotirasini saqlovchi noyob madaniy meros sifatida ham qadrlanadi.

Shu jihatdan qaralganda, milliy folklor professional san’at turlarining rivojlanishida muhim manba vazifasini bajaradi. Xususan, adabiyot, teatr, musiqa, kino, tasviriy san’at hamda me’morchilik kabi sohalarning taraqqiyotida folklor motivlari, syujetlari, obrazlari va badiiy ifoda vositalaridan keng foydalanilgan. Shu sababli folklor nafaqat xalqning og‘zaki ijodi, balki zamonaviy milliy san’at taraqqiyotining muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodi turlari xalq orasidan yetishib chiqqan iste’dodli kishilarning ijodiy izlanishlari natijasida, elning turmush tarzi, geografik sharoiti hamda ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllangan. Ular avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib, amaliyotda sinovdan o‘tgan sari mukammallashib, sayqallanib, tobora an’anaviy tus olgan hamda kasbiy, ya’ni professional xususiyat kasb etgan.

Bunga xalq ijodining bizgacha yetib kelgan qator qadimiy namunalari — qoya toshlardagi tasvirlar, arxeologik va me’moriy yodgorliklar, uy-ro‘zg‘or buyumlari,

yozma manbalar, tarixchilar hamda yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan madaniy meros dalil bo‘la oladi. Chunki ushbu manbalarda xalqlarning ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga bo‘lgan munosabati, e’tiqodi va diniy tasavvurlari, inson hamda olam haqidagi his-tuyg‘ulari, badiiy tafakkuri, bilim darajasi, shuningdek, baxtli va adolatli zamon haqidagi orzu-umidlari o‘z ifodasini topgan.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Qadimda jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchayib borishi natijasida xalq ijodining turlari ham ko‘paygan hamda ayrim iste’dodli shaxslarning o‘z qiziqishi va qobiliyatiga mos yo‘nalishlarda ixtisoslashishiga zamin yaratilgan. Shu tariqa baxshilar, masxarabozlar, qiziqchilar, qo‘g‘irchoqbozlar, raqqoslar, mashshoqlar, naqqoshlar, kulollar, o‘ymakorlar va kashtado‘zlar san’ati shakllangan. Ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi korfarmonlar va ishboshilarga ham ehtiyoj tug‘ilgan. Natijada ijodkorlarning badihaga asoslangan ijodiy izlanishlari hamda yaratgan yangiliklari ustoz-shogird munosabatlari doirasida yanada takomillashgan. Demak, dastlab ustoz-shogird an’analari shakllangan va ularning hamkorlikdagi ijodi har bir ijro yoki amaliyot davomida yangi o‘zgarishlar, yangi asarlar hamda ularning turli variantlari yaratilishiga sabab bo‘lgan. Bu jarayon ustozlar nazorati ostida yanada rivojlangan. Ustoz tomonidan ma’qullanib, amaliyotda qo‘llashga munosib deb topilgan jihatlar saqlab qolingan. Topshiriqlarni to‘g‘ri bajargan, farosatli shogirdga fotiha berish esa an’anaga aylangan. Mazkur jarayon ijobiy natijalar bergan va ustozdan shogirdga o‘tuvchi an’analar hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib kelgan.

Kishilik badiiy tafakkurining turli shakllarini o‘zida mujassam etgan milliy folklor namunalari inson faoliyatining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Chunki folklorda qadimgi odamlarning diniy e’tiqodi, mifologik qarashlari, boshlang‘ich ilmiy (empirik) bilimlari, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari o‘z aksini topgan. Qadimiy folklor namunalarini mukammal bilgan kishilar ustoz maqomiga ega bo‘lgan. Bunday bilimdon insonlar el orasida katta obro‘-e’tibor qozongan, yoshlar esa ularga shogird tushishga intilgan. Ustozlar yoshlar orasidan farosatli va iste’dodlilarini tanlab olib, ularni muntazam izlanishga, mehnatsevarlikka hamda kasb sirlarini puxta egallashga o‘rgatganlar.

Barcha yutuqlarning bosh manbai va ilk poydevori maqsadli mehnat ekanligi tarixchi olimlar tomonidan ilmiy asoslangan. Rus faylasufi G. V. Plexanov ham taraqqiyotning asosiy omili bo‘lgan mehnatni ulug‘lab, hatto: “O‘yin — mehnatning farzandidir”, deya ta’kidlaydi. Bu fikrga qo‘shilish mumkin. Zero, ibtidoiy jamiyat tomoshalarining kelib chiqish manbalarini aynan mehnat jarayoni va o‘sha davr kishilarining ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘lash ilmiy jihatdan asosli

hisoblanadi. Olim bu haqda shunday yozadi: “Agar biz mehnat tomoshadan avval paydo bo‘lganini hamda inson dastlab narsa va hodisalarga tirikchilik manbai sifatida qaraganini, keyinchalik esa uning qarashlari estetik munosabat darajasiga ko‘tarilganini anglab yetmasak, ibtidoiy jamiyat madaniyati tarixini to‘liq tushuna olmaymiz” [1, 7- b.]. Demak, xalq orasida mashhur bo‘lgan “Bir foiz qobiliyat, qolgani mehnat” degan hikmatli ibora ham ayni haqiqatni ifodalaydi. Ustozlar, avvalo, shogirddagi tabiiy qobiliyatni aniqlagan, so‘ng uni mehnat qilishga, o‘z ustida muntazam ishlashga va ijodiy izlanishga o‘rgatganlar.

Ustoz-shogirdlik an’anasi tomosha san’atining takomillashuvida ham muhim o‘rin tutadi. Chunki insonning dunyoga kelishi, sezgi, idrok va nutqining shakllanishi mantiqiy rivojlanish jarayonining mahsulidir. Rivojlanish esa insonning go‘zallikka bo‘lgan intilishining mevasi bo‘lib, uning hayotining ajralmas qismi sifatida doimo mavjud bo‘lgan. Shu tariqa xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalarini yaratish va jamoaviy tarzda ijro etish jarayonida o‘ziga xos kasbiy ijodkorlik shakllangan. Bunday ijodkorlar korfarmon deb atalgan bo‘lib, ular ijodiy jamoalarni boshqarish, sahna jarayonini tashkil etish hamda ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalarini bajarganlar.

Xalq og‘zaki ijodini mukammal bilgan korfarmonlarning faoliyati professional rejissura san’atining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki “rejissyor” atamasi fransuz tilida “boshqaruvchi”, “yo‘naltiruvchi” ma’nolarini anglatadi. Shu jihatdan qaralganda, korfarmon xalq tomoshalaridagi ilk boshqaruvchi, ya’ni zamonaviy rejissyorlik kasbining tarixiy ildizlaridan biri sifatida baholanishi mumkin [1, 16-b.]. O‘z navbatida, professional rejissura san’ati ham xalq og‘zaki ijodi va folklor ijrochiligi taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. U xalq tomoshalarining mazmunini boyitish, sahnalashtirish usullarini takomillashtirish hamda badiiy ifoda vositalarini kengaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

XX asrga kelib o‘zbek folklorida ijodkor va ijrochilarning kasbiylashuvi nisbatan jadallasha boshladi. Chunki baxshilar, ertakchilar, askiyabozlar, qiziqchilar, dorbozlar va boshqa xalq san’ati vakillarining ijrosi professional darajaga ko‘tarilishi uchun bo‘lajak ijodkor maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi hamda tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha tajribali ustozdan ta’lim olishi zarur edi. Tajribali ustozlar tomonidan shogirdlarga nafaqat asar matnlari, balki ijro uslubi, ovoz imkoniyatlari, sahna madaniyati, tinglovchi bilan muloqot qilish ko‘nikmalari ham o‘rgatilgan. Natijada har bir ijrochining o‘ziga xos uslubi shakllanib, folklor an’analarining uzluksiz davomiyligi ta’minlangan. Mazkur jarayonda ustoz-shogird

an’anasi ijodiy mahoratni shakllantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lgan.

Ustozlar shogirdlarga folklor namunalarining janr jihatdan rang-barangligi, uning sinkretik san’at bo‘lganligi sababli ijrochidan katta mehnat va mahorat talab etishini uqtirganlar. Afsona, rivoyat, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qo‘shiq, askiya, og‘zaki drama kabi janrlar nafaqat badiiy so‘z san’atining yuksak namunalarini tashkil etgan, balki xalqning ijtimoiy, ma’naviy va madaniy hayotida muhim vazifalarni ham bajargan. Masalan, “Ho‘p mayda”, “Ho‘sh-ho‘sh”, “Turey-turey”, “Churey-churey” singari qo‘shiqlar mehnat jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lsa, “Yor-yor”, o‘lan, lapar, kelin salom to‘y marosimlarining ajralmas qismi hisoblangan. Shuningdek, yig‘i-yo‘qlovlar motam marosimlariga, “Badik” va “Sust xotin” kabi marosim qo‘shiqlari esa xalqning qadimiy e’tiqodlari hamda turli udumlari bilan bog‘liq holda shakllangan. Shu tariqa folklor janrlari xalqning kundalik turmushi, urf-odatlari va marosimlari bilan uzviy aloqada rivojlangan [5, 53-b.].

Folklor janrlarining ijro usullari nafaqat ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga, balki ijro shakliga ko‘ra ham bir-biridan farqlanadi. Ayrim janrlar yakka tartibda, boshqalari esa jamoaviy tarzda ijro etiladi. Shuningdek, ular cholg‘u jo‘rligida yoki cholg‘usiz, kuylash, hikoya qilish, sahnalashtirish yoki mazkur unsurlarni o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda namoyish etiladi. Mazkur xilma-xillik folklorning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, milliy og‘zaki ijodning yaxlit badiiy tizimini shakllantirgan.

Folklor janrlarining taraqqiyoti xalqning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar ayrim janrlarning yo‘qolishiga, ayrimlarining esa yangi shakl va mazmunda rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Shu bois milliy folklor ko‘p qatlamli badiiy hodisa sifatida shakllanib, har bir tarixiy davr uning mazmuni va badiiy tizimida o‘z izini qoldirgan.

Folklor asarlarining ko‘p qatlamli tabiati ularni muayyan tarixiy davr bilan aniq bog‘lab o‘rganishni murakkablashtiradi. Chunki har bir asar yoki janr uzoq tarixiy taraqqiyot davomida xalqning ijtimoiy hayoti, dunyoqarashi va estetik qarashlari ta’sirida takomillashib borgan. Natijada ayrim janrlar o‘zining dastlabki shaklini saqlab qolgan bo‘lsa, boshqalari yangi mazmun va badiiy xususiyatlar bilan boyigan.

Shu bois folklorning muayyan davrdagi holati va taraqqiyotiga oid ilmiy xulosalar ko‘pincha mavjud yozma manbalar, tarixiy ma’lumotlar hamda folklor ekspeditsiyalarida qayd etilgan materiallarga asoslanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, bugungi kungacha yozib olingan an’anaviy o‘zbek folklori namunalarining

asosiy qismi XI–XX asrlar oralig‘ida shakllangan bo‘lib, ular xalqning ko‘p asrlik badiiy tafakkuri va ijodiy tajribasini o‘zida mujassamlashtirgan. Mavjud ilmiy manbalar ayrim folklor janrlarining tarixiy taraqqiyotini qisman tiklash imkonini beradi. Xususan, o‘zbek dostonchiligi tarixini o‘rganishda baxshilar faoliyati va ularning ijro an’analari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Afsuski, qadimgi baxshilar ijrosi, doston aytish usullari hamda ularning ustoz-shogird maktablari haqida yozma ma’lumotlar juda kam saqlanib qolgan. Shunga qaramay, tarixiy manbalarda ayrim muhim ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, Amir Temur davrida baxshilar va jirovlar harbiy yurishlar hamda tarixiy voqealarni doston tarzida kuylash orqali xalq orasida vatanparvarlik va jasorat g‘oyalarini targ‘ib etganligi qayd etiladi. Shuningdek, To‘xtamish saroyida Kamolzoda va Jahon Mirzo kabi jirovlarning faoliyat yuritgani haqida ham tarixiy ma’lumotlar mavjud. Bundan tashqari, XII asrda yaratilgan **“**Abu Muslim” qissasi xalq dostonlariga yaqin badiiy xususiyatlarga ega bo‘lib, unda qahramonlik, jasorat va yurtparvarlik g‘oyalari ulug‘langan. Mazkur asar xalq epik tafakkurining rivojlanishida muhim bosqichlardan biri sifatida baholanadi [2, 15-b.].

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek folklorini ilmiy asosda to‘plash va o‘rganish ishlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Rossiyadan kelgan sharqshunos va etnograflar xalq orasida ekspeditsiyalar o‘tkazib, og‘zaki ijod namunalarini yozib ola boshladilar [3, 28-b.]. Natijada ko‘plab dostonlar, ertaklar, qo‘shiqlar, maqollar va boshqa folklor janrlari yozma shaklda saqlab qolindi. Bu jarayon milliy folklor merosining keyingi avlodlarga yetib kelishida muhim tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Ayni davrda ayrim ijodkorlar tomonidan folklor namunalarini yozma adabiyot talablari asosida qayta ishlash, shuningdek, yozma asarlarni xalq orasida ommalashtirish jarayoni ham kuzatildi. Natijada xalq kitoblari deb ataluvchi qissalar keng tarqaldi va xalq orasida sevib mutolaa qilinadigan asarlarga aylandi. Bu hodisa og‘zaki va yozma adabiyotning o‘zaro ta’sirini kuchaytirib, folklor taraqqiyotining yangi bosqichini yuzaga keltirdi.

Shuningdek, ayrim dostonchilik maktablari repertuarida yozma adabiyot namunalari ta’siri yaqqol sezila boshladi. Xususan, Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi vakillarining repertuarida yozma manbalarga tayangan syujet va obrazlarning uchrashi buning yorqin dalilidir. Mazkur jarayon folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi ijodiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qildi. Bundan tashqari, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida doston, ertak, qo‘shiq va boshqa folklor janrlarini ijro etishga qiziqqan iste’dodli yoshlar tajribali ustozlar qo‘lida maxsus ta’lim ola boshladilar. Natijada ustoz-shogird an’anasi yanada takomillashib, xalq ijodkorlarining kasbiy mahorati va ijrochilik madaniyati yuksaldi. Aynan shu

jarayon folklorning marosim va ibtidoiy e’tiqodlar bilan bog‘liq ayrim ko‘rinishlardan ajralib, mustaqil badiiy san’at sifatida rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi.

XX asr boshlariga kelib o‘zbek xalq og‘zaki ijodining deyarli barcha janrlari mazmun va shakl jihatidan yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Bu jarayonda ustoz-shogird an’analarining izchil davom ettirilishi xalq ijodkorlari mahoratini oshirish, ijro maktablarini shakllantirish hamda milliy badiiy merosni asrab-avaylashda muhim omil bo‘ldi. Mazkur davrda xalq san’atining turli yo‘nalishlari bo‘yicha ijodiy jamoalar va ijro maktablari vujudga keldi. Baxshilar, sozandalar, qiziqchilar, masxarabozlar va tomosha san’ati vakillari faoliyatining muayyan yo‘nalishlarga ajralishi ijrochilik madaniyatining yanada takomillashishiga xizmat qildi. Ayniqsa, dostonchilik maktablari faoliyatining kengayishi natijasida baxshilik san’atining hududiy uslublari shakllandi hamda ularning badiiy-estetik xususiyatlari yanada boyidi [4, 7-b.].

Shuningdek, folklor namunalarini ilmiy asosda yig‘ish, yozib olish va nashr etish ishlari jadallashdi. Natijada ko‘plab xalq dostonlari, ertaklar, qo‘shiqlar, maqollar, topishmoqlar va boshqa janrlar yozma manbalarda saqlanib qoldi. Bu esa nafaqat milliy madaniy merosni asrash, balki folklorshunoslik fanining rivojlanishiga ham mustahkam zamin yaratdi. O‘zbek folklorini tizimli ravishda tadqiq etish natijasida uning janriy tarkibi, badiiy xususiyatlari, ijrochilik an’analari hamda hududiy maktablari yuzasidan muhim ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Shunday qilib, XX asr boshlarida ustoz-shogird an’analarining yanada takomillashuvi o‘zbek folklorining mazmunan boyishi, ijrochilik madaniyatining yuksalishi hamda milliy badiiy tafakkurning rivojlanishida muhim omil bo‘ldi. Bu jarayon xalq og‘zaki ijodining zamonaviy bosqichga o‘tishida, uning professional san’at bilan uzviy aloqalarini mustahkamlashda va milliy madaniyat taraqqiyotida alohida o‘rin egalladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ustoz-shogird an’analari o‘zbek xalq og‘zaki ijodining shakllanishi, rivojlanishi va avloddan avlodga uzatilishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Aynan ushbu an’ana orqali folklor asarlarining matni, ijro usullari, badiiy-estetik tamoyillari hamda milliy qadriyatlar izchil ravishda saqlanib, keyingi avlodlarga yetkazib kelingan. XX asrga kelib xalq ijodkorlarining kasbiy mahorati oshishi, ijrochilik maktablarining shakllanishi hamda folklor namunalarining ilmiy asosda to‘planishi va o‘rganilishi milliy folklor taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi.

Ustoz-shogird an’anasi nafaqat muayyan folklor namunalarini saqlash va yetkazish, balki ijrochilik mahorati, badiiy tajriba va ijodiy usullarni

takomillashtirishda ham muhim o‘rin tutgan. Ustozdan shogirdga o‘tgan bilim, tajriba va ijro mahorati natijasida baxshichilik, dostonchilik, askiyachilik hamda xalq tomosha san’atining o‘ziga xos ijro maktablari va an’analari shakllangan.

Bugungi kunda ham ustoz-shogird an’analari xalq baxshichiligi, dostonchilik, askiyachilik va boshqa folklor yo‘nalishlarining uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydigan muhim ma’naviy-madaniy institut sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bois ushbu an’analarni chuqur ilmiy tadqiq etish, ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o‘rganish, mavjud ijro maktablari tajribasini tizimli ravishda hujjatlashtirish hamda ustozlarning ijodiy tajribasini yosh avlodga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ustoz-shogird an’analarini zamonaviy ta’lim va madaniy-ma’rifiy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, folklor namunalarini to‘plash, raqamlashtirish va ilmiy jihatdan o‘rganishga e’tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Bu esa milliy folklor merosining uzluksizligini ta’minlash, uning badiiy-estetik xususiyatlarini asrab-avaylash hamda kelajak avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi.

Demak, ustoz-shogird an’analarini asrash va rivojlantirish o‘zbek xalq og‘zaki ijodining tarixiy davomiyligini ta’minlash bilan bir qatorda, milliy badiiy tafakkur, ijrochilik madaniyati va madaniy merosni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Умаров М. Эстрада ва оммавий томошалар тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 7-б.
2. Муродова М. Фольклор ва этнография. – Тошкент: Алоқачи, 2008. – 15-б.
3. Mirzayev T. Boqiy so‘z // Xalq so‘zi. – 1999. – 15-oktyabr.
4. Namoz M., To‘xtayev Ch. Ajdodlarimiz dahosining bebaho yodgorligi // Xalq so‘zi. – 1999. – 9-noyabr.
5. Karimova M. Folklor-etnografik tomoshalar rejissurasining o‘ziga xos xususiyatlari: san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2025. – 100 b.

TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI: TIZIMLI TAHLIL VA STRATEGIK YONDASHUVLAR **Zamira Nishanova**	**6**
OG‘ISHGAN XULQLI O‘SMIRLAR BILAN ISHLASHDA MIKRO VA MAKRO MUHIT OMILLARI: MILLIY TARBIYA VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK NAZORAT TIZIMI **Jabborov Xazrat Xusenovich**	**12**
XOTIN-QIZLAR MUTAASSIBLIK HOLATINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI **Akramov Mirmuxsin Rustamovich**	**24**
SHAXS INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIGA PEDAGOGNING PSIXOLOGIK TA’SIRI **Ashurov Ramzidin Ramazonovich**	**34**
PEDAGOGLARDA KASBIY SO‘NISH JARAYONINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARINI O‘RGANISH NATIJALARI **Botirova Dilafro‘z Bozorovna**	**43**
OTA-ONA VA O‘SMIRLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLARNI GARMONIZATSIYALASHDA AFFILIATSIYA MOTIVATSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI **Samatova Sevara G‘ayratovna**	**50**
STRESSNI YENGIB O‘TISHDA MOTIVATSION VA IRODAVIY RESURSLARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI **Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich**	**63**
NEVROZ TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI **Abduraximov Doniyor**	**77**
BO‘LAJAK SPORT PSIXOLOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSION OMILLARNING AHAMIYATI **Rasulov Zokir Pardayevich**	**86**
UMUMTA’LIM MAKTABLARI TARIX DARSLARIDA IMMERSIV TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH **Rasuljon Atamuratov**	**93**

TALABALARIDA AXBOROTNI INTENSIV QABUL QILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI **Ergashev Bunyod Shokir o‘g‘li**	**100**
SIYOSIY NUTQNING O‘RNI VA AHAMIYATI **Xalilova Ruxsora Raupovna**	**110**
TALABALARNING SPEAKING KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH **Rasulova Moxira Abdujalilovna**	**117**
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHNING DIAGNOSTIK MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI **Atamuratov Dilshod**	**123**
USTOZDAN SHOGIRDGA: XALQ OG‘ZAKI IJODINING UZLUKSIZ AN’ANALARI **Karimova Muqaddas Abdisamatovna**	**131**
BUXORO AN’ANAVIY ME’MORCHILIGIDA TURAR-JOYLAR **Shamshod Karimov**	**139**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Jurnalda chop etilgan materiallardan to‘liq yoki qisman qayta foydalanilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** ilmiy-amaliy metodologik jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar qaytarilmaydi. Barcha ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish, ilmiy ekspertiza va taqriz jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalning mavzu va ilmiy yo‘nalishlariga mos kelmagan, tahririyat tomonidan belgilangan talablar hamda nashr etish mezonlariga javob bermagan maqolalarni nashrga qabul qilmaslik huquqi tahririyatda saqlanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-mayda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda 1564147-sonli guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan barcha maqolalar “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi hamda ilmiy ekspertiza va ikki tomonlama anonim taqriz (Double-Blind Peer Review) jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalda nashr etilgan materiallarning mazmuni, keltirilgan ma’lumotlar, ilmiy natijalar va foydalanilgan manbalarning ishonchliligi hamda to‘g‘riligiga muallif(lar) mas’ul hisoblanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

***

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ nashriyotida nashrga tayyorlandi va jurnalning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, 8-uy
Rasmiy veb-sayt: https://fanlararotadqiqotlar.uz/index.php/ft
E-mail: publisher@fanlararotadqiqotlar.uz